



GAT ANALYSIS OF THE GEOMORPHOLOGICAL STRUCTURE OF THE SANGZOR RIVER BASIN

Nurmukhamad Kasimov

Researcher

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Geomorphological structure, dome-palaxa, Pleistocene-Holocene, relief morphometric indicators, cartographic analysis.

Received: 10.09.23

Accepted: 12.09.23

Published: 14.09.23

Abstract: The Sangzor river basin is distinguished by its unique geomorphological structure. In this article, the formation of the geomorphological structure of the Sangzor river basin, its division into large geomorphological complexes has been studied and analyzed.

SANGZOR DARYO HAVZASINING GEOMORFOLOGIK TUZILISHINI GAT TAHЛИLI

Nurmuxamad Qosimov

Tadqiqotchi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O'zbekiston

МАҚОЛА HAQIDA

Kalit so'zlar: Geomorfologik tuzilish, gumbazsimon-palaxsa, pleystosen-golosen, relyefli morfometrik ko'rsatkichlar, kartografik tahlil.

Annotatsiya: Sangzor daryo havzasining geomorfologik tuzilishi o'ziga hos bo'lgan murakkab tuzilishga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ushbu maqoladi Sangzor daryo havzasining geomorfologik tuzilishining shakllanishi, yirik geomorfologik komplekslarga bo'linishi o'rganilgan va tahlil qilingan.

GAT-АНАЛИЗ ГЕОМОРФОЛОГИЧЕСКОГО СТРОЕНИЯ БАССЕЙНА РЕКИ САНГЗОР

Нурмухамад Касымов

Исследователь

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Геоморфологическое строение, купол-палакса, плейстоцен-голоцен, морфометрические показатели рельефа, картографический анализ.

Аннотация: Бассейн реки Санззор отличается уникальным геоморфологическим строением. В данной статье изучено и проанализировано формирование геоморфологического строения бассейна реки Санззор, его деление на крупные геоморфологические комплексы.

KIRISH

Sangzor havzasi hududi relyefining tuzilishiga ko‘ra murakkab bo‘lib, tog‘ va tog‘oldi, tog‘oralig‘i daryo vodiysi hamda Sangzor dayosi o‘zanlaridan iboratdir. Havzaning eng baland qismlari 4000 metrdan yuqori va quyi qismi 350-400 metrgacha balandliklarni qamrab olgan.

Havzani geomorfologik tuzilishi gumbazsimon-palaxsa tipidagi qayta ko‘tarilgan morfostruktura bo‘lib, u alp davrida differensial xarakterga ega bo‘lgan yangi tektonik harakatlar ta’sirida burmalangan gumbazsimon-burmali tipidagi tog‘lar ta’siri natijasida shakllangan. Bu yerda o‘rta to‘rtlamchi davrga qadar yangi tektonik harakatlar ta’sirida cho‘kkan va manfiy struktura bo‘lgan, keyingi davrlarda esa ular tog‘ tizmalari bilan bir qatorda ko‘tarila boshlagan [2; 49-b].

ASOSIY QISM

Sangzor havzasining dengiz sathidan 500-2000 metrgacha bo‘lgan katta qismi genezisiga ko‘ra orogen zona bo‘lib, kechki pleystosen-golosen yoshidagi qiyasimon va subhorizontal baland tekisliklar va yassi, kuchsiz to‘lqinsimon morfostrukturali geomorfologik yarusni hosil qiladi. Havzani o‘rab turgan Chumqortog‘ va Molguzar tizmalarining 2000 m va undan baland qismlari kechki pliotsen-to‘rtlamchi yoshidagi relyefi bilan gumbazsimon-palaxsa tog‘ tizmalari hamda baland tog‘ massivlaridan iborat bo‘lib, tizmalarda 500-1000 m chuqurlikdagi parchalanishlar uchraydi.

Molguzar tizmasining shimoli-g‘arbiy qismlari pasayib balandligi 1000-2000 m bo‘lgan yoyilgan yassi yuzalarni hosil qilgan va bu morfostruktura ham genezisiga ko‘ra kechki pleystosen-golosenga oid.

Molguzar tizmasining Sangzor daryo havzasi hududiga qaraydigan qismini professor L.A.Alibekov (1978) geomorfologik jihatdan ikki qismga ajratada. Birinchi qismiga qumli slanets qatlamlaridagi past tog‘ tizmasi bo‘lib, uning g‘arbiy chekkasini egallaydi. Bu hududuning g‘arbiy chegarasi Amir Temur (Ilon o‘tdi darasi) darvozasi, sharqiy tomoni esa Avliyo daryosi orqali o‘tadi. Bu hududlar eroziyon jarayonlarining nisbatan zaif namoyon bo‘lishi, uzun, silliq va yumshoq qiyaliklar bilan tavsiflanadi. Bu hudud relyefining xarakterli shakllari tizmalarning tekislangan yuzalari, janubiy ekspozitsiyaning yumshoq cho‘zilgan yon bag‘irlari va yumshoq qiyalikli soylardir. Ikkinci qismi esa devon davridagi slanets qatlamlari ustida joylashgan bo‘lib,

Avliyo va Jontaka daryolarining orasini egallagan. Asosiy relyef shakllari tor tizmalar, qirlari, sharqiy va kuchli qiya yon bag‘irlari g‘arbiy ekspozitsiya, jarliklar, tog‘ soylari va boshqalar bilan xarakterlanadi [1; 43-b].

Havzaning quyi qismi, ya’ni Sangzor daryosining tugashi kechki pleystosen-golosen yoshidagi qiyasimon va subgorizontal baland tekisliklar va yassi, kuchsiz to‘lqinsimon past tog‘li (500-1000 m) geomorfologik strukturaga to‘g‘ri kelib, bu yerda 200 metrgacha bo‘lgan chuqur platosimon parchalanishga ega morfostrukturalar mavjud [4; 13-b].

Sangzor havzasi Turkiston tizmasining shimoliy va Molguzar tizmalarining janubiy yonbag‘irlarida Yassilangan tog‘oldi yuzalari, tik yonbag‘ili o‘rtacha balandlikdagi tog‘lar, suv ayirg‘ichli va qadimgi denudatsion yuzalar yirik geomorfologik komplekslariga bo‘linadi [1; 41-42 b].

Yassilangan tog‘oldi yuzalari - gryadali past tog‘lar, Molguzar va Chumqortog‘ tog‘larining eng shimoliy qismini egallab, mutlaq balandligi 500-1000 metrdan 1500 metrgacha bo‘lib, ushbu geomorfologik kompleks relyefining hosil bo‘lishida denudatsiya - eroziya jarayonlari ta’siri sezilib turadi. Bu kompleks gryadalar va chuqur soylar, daryo vodiylari bilan kesilgan. Vertikal yemirilish yonbag‘irlarining kesilishi 50-250 m gacha yetadi.

Tik yonbag‘ili o‘rtacha balandlikdagi tog‘lar. Yuqoridagi ta’riflangan yarusdan balandda joylashib, Chumqortog‘ tog‘larining tik qiyaliklarida 1000-1500 m dan 2000- 2500 m gacha bo‘lgan mutlaq balandliklar egallyaydi. Bu geomorfologik kompleks juda kuchli yemirilgan relyef bilan xarakterlanadi. Ohaktoshdan tuzilgan yonbag‘irlar nihoyatda tik qoyalar hosil qilgan. Tik yonbag‘irli o‘rtacha balandliklardagi geomorfologik mintaqaning harakterli xususiyati uning nihoyatda ko‘p chuqur daralar, soylar va daryo vodiylari bilan kesilganidir. Daryo vodiylari yarusning yuqori qismida tor va juda ham chuqurdir. Bu geomorfologik kompleksni yirik ko‘ndalang soylar - Boyqo‘ng‘irsoy, Ko‘kjarsoy, Oqqo‘rg‘onsoy, Tangatoptisoy, Baxmazarsoy, Novqasoy va boshqa soylar kesib o‘tadi. Daryo vodiylarining yuqori qismida umuman akkumulyativ terassalar yo‘q. Faqat quyi qismiga tomon ba’zan ayrim terassalar hosil bo‘lgan, ular ham tutash bir zanjirni hosil qilmaydi. Tik yonbag‘irli o‘rtacha balandlikdagi geomorfologik kompleksning vertikal parchalanishi 500-700 m gacha yetadi. Daryolar va soylar o‘rtasidagi suv ayirg‘ichlar juda qisqa bo‘lib, ularning yonbag‘irlari tik tushadi. Shuni aytish kerakki, hududning geomorfologik kompleksida jar va jarliklar, karst jarayonlari - g‘orlar, karst voronkalari va boshqa karst shakllari keng tarqalgan.

Sangzor havzsi atrofida joylashgan Chumqor va Molguzar tog‘laridagi eng qadimgi geomorfologik kompleks - bu tog‘ tizmasining suv ayirg‘ichli va qadimgi denudatsion yuzalaridir. Geomorfologik kompleksning mutlaq balandligi - 2500-3000 metrdan 3500-4000 metrgacha yetadi. Bu geomorfologik kompleks Chumqortog‘ va Molguzar tog‘larining vertikal kesimida eng

yuqori balandlikni egallab, o‘ziga xos relyef xususiyatlariga ega. Masalan, havzada ekzogen jarayonlarga iqlim omili bevosita va maksimal ta’sir ko‘rsatadi.

Molguzar tog‘larining suv ayirg‘ichi janubi-sharqdan shimoli-g‘arbgan tomon cho‘zilib, yonbag‘irlari odatda juda tik, o‘simplik qoplamlari kam, juda toshli qoyalarga boy. Geomorfologik kompleksning, ayniqsa, janubiy yonbagirlari nihoyatda tik va qoyalardan iborat.

Suvayirg‘ich geomorfologik kompleksning shimoliy yonbag‘irlarida yirik - yirik suv yig‘uvchi voronkalar bor, ana shu yerdan yuqorida aytilgan ko‘ndalang daryolar boshlanadi. Bu kompleksning ko‘rinishi juda ekzotik ko‘rinishda bo‘lib, Shahriston dovonidan Guralash dovonigacha suv ayirg‘ich tik qirrali va cho‘qqilardan iborat. Guralash dovonidan keyin esa, tog‘ tizmasining suv ayirg‘ichi biroz tekislanib kengayadi va dovonlar hosil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Алибеков Л.А., Нишонов С.А. Природные условия и ресурсы Джизакской области. – Ташкент: Узбекистан, 1978. – 255 с.
2. Маматкулов М. Ўрта Осиё геоморфологияси. Т. “Университет” 2008. 49-б.
3. Xakimov K.A. Baxmal tumani tabiatidan foydalanishda landshaft rejalshtirishni qo‘llash. Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. O‘zbekiston Milliy universiteti. Toshkent, 2022.
4. Jizzax viloyati o‘lkashunoslik atlasi. O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi. Toshkent, 2014. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.
5. Ismatov N.I. Chumqortog‘ relefining bazi xususiyatlari. Geografiyaning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Samarqand, 2006. 50-51 b.
6. www.yen.wikipedia.org/wiki/Landscape_planning
7. <https://uz.geofumadas.com/global-mapper-in-se-va-mal/>
8. <https://ubunlog.com/uz/qgis-geospatial-information-ubuntu/>
9. <https://www.qgis.org/ru/site/>
10. <https://nextgis.ru/>
11. Gudalov, M. R., & Karimov, I. E. (2022). TECHNOGENIC FACTORS OF FORMATION OF THE LANDSCAPE AND ECOLOGICAL CONDITION OF RESERVOIRS. " COĞRAFİYANIN MÜASİR PROBLEMLƏRİ: ELM VƏ TƏHSİLİN İNTEQRASIYASI, 49.
12. Guzal, R., & Zaynab, A. (2021). The role of Avesta in the formation of a healthy lifestyle in the Khorezm oasis. *EPRA International Journal of Socio-Economic and Environmental Outlook (SEEO)*, 8(1), 8-10. Abidova, Z. K. (2020). Sanctification of Water among the Population of the Khorezm Oasis. *Rupkatha Journal on Interdisciplinary Studies in Humanities*, 12(4).